

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA BUXGALTERIYA  
HISOBINI TASHKIL ETISH VA HISOB YURITISH JARAYONINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Saparov Jasurbek Babajonovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi banklardagi buxgalteriya hisobini tashkil etishda vujudga keladigan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda metodlardan foydalanish.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi ,hisob siyosati, xalqaro standartlar(MHXS),buxgalteriya hisobvaraqlar,buxgalteriya balansi,moliyaviy hisobotlar,naqd pul va naqd pulsiz hisob kitoblar,

### **Kirish**

Respublikada hozirgi kunda Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan bank tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Banklarning barcha operatsiyalari jahon tajribasidan foydalangan holda bajarilmoqda. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tayyorlash Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) moslashtirib borilmoqda.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda davlatimizning qonunchiligiga, buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga, banklar o'zining hisob siyosatini bilan birga Respublika Markaziy banki tomonidan belgilab berilgan umumiy yo'riqnomalar va nizomlarga rioya qilishlari lozim. Shu bilan birga banklarning buxgalteriya hisobi ilmiy asoslangan holda tashkil etilishi kerak.Bank faoliyatida shunday keng masshtabdagi operatsiyalarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish, albatta buxgalteriya hisobi bilan bog'liqdir.Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishi, ular bo'yicha xalqaro talablarga javob beradigan milliy standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yaratilishi, hisob milliy standartlarining buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga tenglashtirilishi, vatanimizning jahon integrallashuvida katta ahamiyat kasb etadi.

Banklarda buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi buxgalteriya hisobi bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik banklarning kassa, hisob-kitob, kredit va boshqa bank operatsiyalari bo'yicha davlat, korxona, tashkilot, muassasa, jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

## **Mavzuning dolzarbliги**

Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta‘minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi. Buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil qilinishiga alo hida e’tibor qaratiladi. Chunki, birinchidan, tijorat banklarining operatsiyalarni o‘tkazish va ularning buxgalteriya hisobini rasmiy jihatdan olib borishiga qo‘yiladigan barcha talablarga rioya etilishi mamlakat bank tiziminining sifati va ishonchlilagini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, buxgalteriya hisobidagi xatoliklar natijasida banklarga jalb etilgan omonatchilar va mulkdorlar mablag‘larini yo‘qotish riskini bartaraf etish yoki uni eng past darajaga tushirish yo‘li bilan bank 14 operatsiyalarining daromadlilagini maqbul darajada bo‘lishiga erishish mumkin bo‘ladi Banklarda buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko‘rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo‘lga qo‘yish usullari to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ulami nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo‘yicha javobgarlik belgilangan.

Banklar o‘z faoliyatini olib borish jarayonida qanday natijaga erishgani, mablag‘lari harakati, ularning manbai to‘g‘risida tezkor va sifatli ma'lumotga ega bo‘lishi lozim. Ushbu ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi ta‘minlab beradi.

Banklarda buxgalteriya hisobi avvalo, uning korxonalar, budget va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tubdan farq qiladi. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish boshqa korxona va tashkilotlarnikiga qaraganda o‘zining operativligi tufayli ajralib turadi. Har kuni soat 16-00 gacha operatsion kun hisoblanadi. Jumladan, bizning respublikamizda xalqaro andozalarga to‘la javob beruvchi zamonaviy elektron to‘lov tizimi ishlab turibdi. Hozir bank hisobvaraqlari orqali to‘lovlar naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklida o‘ta qisqa vaqt ichida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa aholining plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz to‘lovlar hajmi to‘xtovsiz o‘sib bormoqda.

**Xulosa va takliflar:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat banklarida buxgalteriya hsobini tashkil etishda avvalombor,ularda mukammal tarzda hisob siyosatini shakllantirish,tushunarli moliyaviy hisobotlar tuzish uslubini yaratish,

-bank aktivlaridan samarali foydalanish ,yangi produkt xalq daromadlariga mos keladigan imtiyozli kreditlar joriy qilish,

-IFRS xalqaro standartlariga etapma etap o'tish va shu dasturlarni tushunadigan kadrlarni tayyorlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag'i "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank soxasini isloh qilish strategiyasi to'grisida"gi PF-5992 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 30-iyundagi "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 3254-sonli Qarori
3. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.
4. Karaliyev T.M., Qurbonov R.B., Rustamov M.S. Banklarda buxgalteriya hisobi (Matn]: o 'quv qo'llanma / T.M. Karaliyev, R.B. Qurbonov, M.S. Rustamov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 344 b.
5. Z.A.Umarov. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b.
6. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti